

## O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lif muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil dagi  
MMO- 281 3 sonli bauonnomasi asosida tasdiqlangan.*

*Amal qilish myoddamu 2027 yil gacha*

<b>Ta'lif muassasasi nomi</b>	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
<b>Kurs</b>	OIV/OITS muammolari
<b>O'quv dastur nomi</b>	«OITS va sog'liqni saqlash bilan bog'liq infeksiyalarning profilaktikasi»
<b>O'qish turi</b>	Mavzuiy malaka oshirish
<b>O'quv dastur muallifi/ mualliflari</b>	Yuldashev K.X., Umurov S.E., Giyasova G.M., Mustafaeva D.A.
<b>Siklning umumiy soati</b>	72 kredit

### Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
t.f.d., dotsent Yuldashev K.X	t.f.d., dotsent Umurov S.E.	t.f.n., Giyasova G.M.	t.f.n., Mustafaeva D.A.	Assistant Igamberdiev B.N.

<b>Maqsad</b>	Respublikada OIV infeksiyasi va sog'liqni saqlash bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, epidemiologiyasi, profilaktikasi hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni samarali tashkillashtirish, amaliyotga joriy etish bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nigmalarini mukammallashtirish va yangilashdan iborat
<b>Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent</b>	oliy ma'lumotli hamshiralik va o'rta tibbiy ma'lumotni tasdiqlovchi hujjatga ega tibbiyot xodimlari.
<b>Sikl vazifalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilar shuurida davolash-profilaktika muassasalari gigienasi, dezinfektion-epidemiologik talab va qoidalar borasidagi fikrlash va ijobjiy qarashlarni shakllantirish;</li> <li>• OIV infeksiyasi va sog'liqni saqlash bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, epidemiologiyasi va oldini olish, epidemiyaga qarshi choratadbirlarni, muloqotdan oldingi va muloqotdan keyingi profilaktikani samarali tashkillashtirish ham-</li> </ul>

	<p>da amalga oshirish borasida bilim va ko‘nikmalarini taqdim etish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• OIV infeksiyasi va sog‘lijni saqlash bilan bog‘liq yuqumli kasalliklarga doir epidemiologik tashxisot, epidemiologik nazorat, kasalliklar haqidagi ma’lumotlarga statistik ishlov berish va hisobotlarni rasmiylashtirish, profilaktik va epidemiyaga qarshi zamонавиy chora-tadbirlarni qo‘llash qoidalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish;</li> <li>• davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya, aseptika, antiseptika, sterilizatsiya, chiqindilarni zararsizlantirishni risoladagidek amalga oshirish, infektion nazoratni yo‘lga qo‘yish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini yangilash.</li> </ul>
<b>Sikl tarkibi</b>	<p><b>1-modul.</b> Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash tizimini rivojlantirish. Sog‘lijni saqlash bilan bog‘liq infeksiyalarning dolzARB muammolari. Turli yo‘nalishlardagi davolash-profilaktika muassasalarida sog‘lijni saqlash bilan bog‘liq infeksiyalarning epidemiologiyasi va profilaktikasining o‘ziga xosligi.</p> <p><b>2-modul.</b> Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfektion-epidemiologik rejim. Dezinfeksiya, aseptika, antiseptika, sterilizatsiyadan oldingi ishlov, sterilizatsiya, chiqindilarni zararsizlantirish. Epidemiologik nazorat. Infektion nazorat. Ekspert nazorati. Klinik epidemiologiya asoslari.</p> <p><b>3-modul.</b> OIV infeksiyasing etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va OIV infeksiyali patsientlarning dispanserizatsiya tartibi.</p> <p><b>4-modul.</b> OIV infeksiyasing epidemiologiyasi, epidemiologik nazorati va profilaktikasi.</p>
O‘quv bazalari	
1.Respublika OITSga qarshi kurashish markazi	2.Respublika OITSga qarshi kurashish markazi qoshidagi ixtisoslashtirilgan yuqumli kasalliklar shifoxonasi



## Simulyatsion asbob/uskunalar

